

Klinik laborator diagnostikada innovatsion texnologiyalardan foydalanish, muammolar va yechimlar, 2023



**KLINIK LABORATOR  
DIAGNOSTIKADA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA  
YECHIMLAR**  
**xalqaro ilmiy-amaliy  
anjuman**  
**18 aprel 2023 yil**



**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi**

**WWW.SSV.UZ**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi www.tma.uz**

diseases .....	230
<b>Berger I.V.</b> Цитокиновые сдвиги у гематологических пациентов с тромбозами .....	232
<b>Bobojonova Sh.D., Saidov A.B., Samatova L.D.</b> Donorlarda brutsel-lyoz diagnostikasi .....	234
<b>Djurabayeva M.H, Muxiddinova M.</b> Comparative characteristics of lung tuberculosis treatment models .....	235
<b>Do'stmuhammedova R.Z., Xasanova M.A., Xudayberganova A.A.</b> Some aspects of hair research in the forensic relationship .....	237
<b>Do'stmuhammedova R.Z., Xasanova M.A., Xudayberganova A.A.</b> Sud tibbiy munosabatlarda sochlarni tekshirishning aspektlari .....	238
<b>Elboyeva H.D.</b> Kaltsiyning klinik ahamiyati .....	239
<b>Ergashev A.D., Maxamatjanova N.M.</b> Correction of post-Covid-19 anxiety-phobic disorders by erickson hypnosis .....	240
<b>Ergasheva U.A.</b> Alaninaminotransferaza klinik ahamiyati .....	241
<b>Fayzullayev Sh.Sh., Saidov A.B., Kurbonova Z.Ch.</b> Qon tarkibiy qismlari infeksiyon xavfsizligini ta'minlash usullari .....	243
<b>Gafurova S.Sh., Yusuphadjayeva S.T.</b> Ta'sirlangan ichak sindromida xavotir-fobik buzilishlar, ularda psixoterapiya va psixofarmakoterapiyaning samaradorligi .....	245
<b>Hamrayev B.O'.</b> O'tkir nurlanish ta'sirida laboratoriya hayvonlarining o'pkasida morfologik o'zgarishlarning o'ziga xosligi .....	246
<b>Islamova Z.S., Babadjanova Sh.A., Musaeva N.B.</b> Gemorragik vaskulitda endotelial disfunksiya rivojlanishida villebrand omilining ahamiyati .....	248
<b>Islamova Z.S., Musaeva N.B., Yusupxodjaeva X.S., Botirxujaeva A.A.</b> Immun mikrotrombovaskulitda trombomodulin omilining ahamiyati .....	249
<b>Jienbaeva A.A., Kurbonova Z.Ch.</b> Diagnosis of kidney damage in heart failure .....	251
<b>Jiyenbayeva A.A., Kurbonova Z.Ch.</b> Yurak yetishmovchiligida buyrak shikastlanishining diagnostikasi .....	252
<b>Jumanazarov S.B., Jabbarov O.O.</b> Surunkali glomerulonefrit rivojlanishida nomzod genlarning roli .....	254
<b>Jumayeva Z.S.</b> Albumin va uni laborator tahlil qilish .....	256
<b>Jumayeva Z.S.</b> Bilirubin fraksiyalarini laborator tahlil qilish .....	257

## **QON TARKIBIY QISMLARI INFEKSION XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH USULLARI**

**Fayzullayev Sh.Sh., Saidov A.B., Kurbonova Z.Ch.  
Toshkent tibbiyot akademiyasi**

Qon komponentlari transfuzion xavfsizligi transfuziologiyaning ajralmas qismi bo'lib, donorlarni tanlash tadbirlari, donor qonining xavfsizligini oshiradigan texnologiyalar, gemotransfuzion infeksiyalarning sifatli laborator diagnostikasi, shuningdek qon tarkibiy qismlardan oqilona klinik foydalanishga bog'liq. Qon tarkibiy qismlarini quyish transfuziologiyaning asosiy qismi bo'lib, shifoxonalarda malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi [10]. Qon preparatida gemotransmissiv infeksiyalar, biokimoviy ko'rsatkichlar, xilyoz, gemoliz, fibrinoliz holatlari kuzatilganda qon preparatlari yaroqsiz deb baholanadi [6].

Gemotransmissiv infeksiyalarning eng xavfli turiga gepatit B, C va D, inson immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi, brutselloz, bezgak kiradi [8, 11]. So'nggi 10 yil ichida surunkali virusli gepatitning asoratlarini erta tashxislash va davolashga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsada [1, 3, 5], ba'zi laboratoriya natijalari oxirigacha o'rganilmagan [2, 4]. Gepatit B (HBV) va gepatit C (HCV) viruslari o'xshash klinik ko'rinishiga qaramay, bir xil faollashishini kuzatish va o'ziga xos antiviral terapiyani rejalashtirish imkonini beradi. Amalga oshirilgan protokolning natijasi - bemorlarda HBV yoki HCV markerlarining asosiy ko'rinishini aniqlash. Transfuziologiyaning asosiy shartlaridan biri qon quyish terapiyasi uchun zamonaviy sifat va xavfsizlik talablariga javob beradigan qon komponentlarini tayyorlash va quyishdir. So'nggi 10yil ichida yangi texnologiyalarini takomillashtirish ushbu imkoniyatlarni oshirishga imkon berdi [9].

Parenteral yo'l bilan yuqadigan infeksiyalarning asosiy qo'zg'atuvchilariga inson immunitet tanqisligi viruslarining (OIV) 1- va 2-turlari ham kiradi. Deyarli 40 million odam OIV infeksiyasi bilan yashamoqda. OIV infeksiyasi bilan taqqoslaganda, virusli gepatit B 6,7 marta, virusli gepatit C 3 marta ko'p uchraydi. Hozirgi vaqtda yuqumli belgilarni aniqlash bo'yicha harakatlar algoritmini tavsiflovchi meyoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va OIV infeksiyasiga qo'llanilgan [12].

2010-2022 yillar oralig'ida aholi (qon donorlari, tibbiyot xodimlari va bemorlar) orasida qon orqali yuqadigan yuqumli kasallik belgilarining tarqalishi bo'yicha yangi ma'lumotlar olindi. Bu ma'lumotlarda OIV infeksiyasi, gepatit C va zahm o'sishini ko'rsatdi, shu bilan birga gepatit B, C, OIVning umumiy ko'rsatkichlari erkaklarda statistik jihatdan ancha yuqori ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, donor qoni va uning tarkibiy qismlari orqali gemotransfuzion infeksiyalarni yuqtirish ehtimoli bor, chunki yuqumli kasalliklarni to'liq yo'q qilishga kafolat yo'q. Shu bilan birga, qon quyishning infeksiyon xavfsizligini yaxshilash bo'yicha bir qator tadbirlar mavjud. Turli bosqichlarda olib boriladigan tadbirlar tabiat jihatidan ham, resurslar va mehnat xarajatlari jihatidan ham sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, mavjud barcha chora-tadbirlar bir birini inkor etmaydi, balki bir birini to'ldiradi va qon va

uning tarkibiy qismlarini quyish infeksiyon xavfsizligini oshirishning umumiy tizimini yaratadi. Yangi diagnostik markerlarning kiritilishi donorlari orasida gemotransmissiv infeksiyalarni aniqlashga yordam beradi va infeksiyalarning transfuzion tarqalish xavfini kamaytiradi. Qon quyish xavfsizligini samarali nazorat qilishning ajralmas sharti qon tarkibiy qismlarini oluvchilar orasida birinchi navbatda yuqtirgan odamlarni to'liq aniqlash va yuqtirishning mumkin bo'lgan sabablarini tekshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

#### **Adabiyotlar.**

1. Курбонова З.Ч. Сравнительный анализ гематологических показателей у больных с циррозом печени В И С вирусной этиологии // «Ўзбекистонда она ва бола саломатлигини муҳофаза қилиш соҳасидаги ютуқлари, муаммолари ва истиқболлари» тезислар тўплами, 2017. - Б. 37.

2. Курбонова З.Ч. Вирус этиологияли сурункали гепатит ва жигар циррозида гемостаз тизими бузилиши хусусиятлари: автореф. Дис. Кан. Мед. Наук. – Тошкент, 2019. -45 с.

3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Функциональная характеристика тромбоцитов у больных циррозами печени вирусной этиологии // Российская наука в современном мире. – Москва, 2019. – С. 47-48.

4. Курбонова З.Ч. Нарушение сосудисто–тромбоцитарного звена гемостаза у больных с хроническими гепатитами и циррозом печени вирусной этиологии // Журнал проблемы биологии и медицины. – 2018. - № 3 (102). – С. 40-43.

5. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Нарушение системы гемостаза при хронических диффузных заболеваниях печени: монография. Тошкент, "Ҳилолнашр" босмаҳонаси, 2021. С. 106-108.

6. Саидов А.Б., Курбонова З.Ч., Сайфутдинова З.А., Шомансурова Г.Е. Қон компонентларида биохимик кўрсаткичлар лаборатор ташхиси // Замонавий клиник лаборатор ташхиси долзарб муаммолари. – 2022. – Б. 158-159.

8. Kurbonova Z.Ch., Madrahimov A.L., Tashboev A.S.Characteristics syndrome cytopenia in patients with liver cirrhosis of viral etiology and C //Osh olimlar kunlari. – 2015. – В. 192-193.

9. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Violations of coagulative hemostasis in patients with liver cirrhosis of the viral etiology // //European science review. – 2018. – №. 7-8. – S. 128-130.

10. Saidov A.B., Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A., Shomansurova G.E. Laboratory diagnosis of hemotransmissible infections in blood components //Zamonaviy klinik laborator tashxisi dolzarb muammolari. – 2022. - В. 71-73.

11. Saidov A.B., Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A., Shomansurova G.E. Qon komponentlaridagi gemotransmissiv infeksiyalarning laborator tashxisi // Zamonaviy klinik laborator tashxisi dolzarb muammolari. – 2022. - В. 44-45.

12. Stover J., Andreev K., Slaymaker E. et al. Updates to the Spectrum model to estimate key HIV indicators for adults and children. AIDS.2014; 28: 427-34.

<https://doi.org/10.1097/QAD.0000000000000483>.